
Oq yo'l sizga, bitiruvchilar!

Viloyatimizdagi professional ta'lim muassasalarini 2021-2022 o'quv yilida jami 18658 nafar o'quvchilar tamomlashmoqda. Shundan kasb-hunar maktablarini 8707 nafar, kollejlarni 7707 nafar, texnikumlarni 2244 nafar o'quvchi bitirib, boshlang'ich professional ta'lim diplomiga ega bo'lishmoqda. Ayni kunlarda professional ta'lim muassasalarida "Oq yo'l, bitiruvchilar" tadbirlari ko'tarinki kayfiyatda bo'lib o'tmoqda. Asosiy e'tibor esa bitiruvchilarni o'z yo'nalishlari bo'yicha munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishlari uchun yetarli sharoit yaratib berishga qaratilmoqda.

Rishton tuman 1-son kasb-hunar maktabida bitiruvchilarga diplom topshirish marosimi tantanali tarzda tashkillandi. Tadbirga maktab o'quvchilari, ularning ota-onalari, nuroniylar, tuman hokimligi vakillari taklif etildi. Shuningdek, bitiruvchilarga oq yo'l tilash uchun tuman hokimi o'rinbosari Z. Umarov, tuman IIB boshlig'i X. Tashpo'latovlar ham tashrif buyurishdi.

Bayramona o'tgan tadbirda bitiruvchilarga turli yo'nalishlar bo'yicha diplomlar, shuningdek, yuqori ko'rsatkichlarga erishgan va namunali xulqi bilan o'rnak ko'rsatgan o'quvchilarning ota-onalariga tashakkurnomalar ham tantanali ravishda topshirildi.

Kasb-hunar maktabida o'quvchilarning doimiy ishga joylashishlariga katta e'tibor berildi.

2022-07-15 16:55:40